

UDK 821.51.0

INTERPRETATION OF COMPLEX PROBLEMS OF LIFE

HAYOTNING MURAKKAB MUAMMOLARI TALQINI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СЛОЖНЫХ ПРОБЛЕМ ЖИЗНИ

Egamberdiyeva Kamola

Respublika ta'lim markazi. 100187, Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy
E-mail:KamolaEgamberdiyeva2021@gmail.com

Annotation. Zulfiya Kuroloy qizi's stories and novels are among the most popular works in Uzbek literature. The fact that the works of Z.Kuroloy kizy have risen to the level of a serious event in the literature determines the relevance of this dissertation. It consists of identifying the peculiarities of the prose of the daughter of Z. Kuroloy. The research was carried out on the example of Z.Kuroloy qizi's novels "Captive of Dreams", "Whirlpool of Troubles" and several stories. Biographical and comparative methods were used in the study. By gradually studying the creative maturity of Z.Kuroloy's daughter from the moment she entered the world of creativity to the present day, an attempt was made to show the peculiarities, successes and shortcomings of her prose works. The results of the study can be used to teach modern Uzbek literature in secondary schools, lyceums and colleges. Another important feature of Z.Kuroloy's daughter's prose is that she is doing creative research to create truly perfect novels. And many of his stories deserve to be considered one of the best reasons to strive for beautiful and moving prose.

Keywords: woman, common people, Talgat, Nasiba, "Whirlpool of Troubles", "Prisoner of Hope", Hulkar Armon.

Аннотация. Рассказы и романы Зульфийи Куролбой кизы входят в число произведений узбекской литературы, которые интересны, трогательны, убедительно воплощают реалии жизни и природы человека, смело поднимают сложные жизненные вопросы. То, что труды З. Куролбой кизы поднялись до уровня серьезного события в литературе, определяет актуальность диссертации. Она состоит в выявлении особенностей прозы З. Куролбой кизы. Исследование проводилось на примере романов З. Куролбой кизы «Пленник снов», «Водоворот бед» и нескольких рассказов. В исследовании использовались биографические и сравнительные методы. Постепенно изучая творческую зрелость дочери З. Куролбой с момента ее прихода в мир творчества до наших дней, была сделана попытка показать особенности, успехи и недостатки ее прозаических произведений. Результаты исследования могут быть использованы для преподавания современной узбекской литературы в средних школах, лицеях и колледжах. Еще одна важная особенность прозы дочери З. Куролбой - то, что она занимается творческими изысканиями, чтобы создавать поистине безупречные романы. И многие его рассказы заслуживают того, чтобы считаться одной из лучших причин стремиться к красивой и трогательной прозе.

Ключевые слова: Женщина, простые люди, Талгат, Насиба, «Водоворот бед», «Пленница надежды», Хулкар Армон.

Kirish. Zulfiya Qurolboy qizi hikoya va romanlari o'zbek adabiyotda yaratilgan asarlar orasida o'zining qiziqarlighi, ta'sirchanligi, hayot haqiqati va insoniy xarakterlarni ishonarli gavdalandirganligi hamda turmushning murakkab muammolarini dadil ko'tarib chiqilgani bilan ajralib turadi. Z.Qurolboy qizi asarlarining adabiyotda jiddiy hodisa darjasiga ko'tarilganligi mazkur maqola

mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi. Z.Qurolboy qizi nasrining o'ziga xos hususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti va uslublari

Tadqiqot Z.Qurolboy qizining "Armon asirasi", "Mashaqqatlar girdobi" romanlari va bir necha hikoyalari misolida olib borildi. Tadqiqot uslubiyati va uslublari. Tadqiqotda biografik va qiyosiy metod uslublariidan foydalanildi. Z.Qurolboy qizining ijod olamiga kirib kelganidan tortib bugungi kungacha bo'lgan ijodiy kamolotini tadriji tarzda tadqiq etish orqali uning nasriy asarlaridagi o'ziga xos hususiyatlar, yutuqlar va kamchilik sabablari ko'rsatib berish urinildi. Tadqiqotda natijalaridan umumta'lim maktablarda, litsey va kollejlarda hozirgi o'zbek adabiyoti darslarini o'tishda foydalanish mumkin.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari

Z.Qurolboy qizi nasrining muhim xususiyatlaridan yana biri uning chinakam mukammal romanlar yaratish yo'lida ijodiy izlanishlar olib borayotgani hisoblanadi. Uning ko'plab hikoyalari esa go'zal va ta'sirchan nasr yaratishga intilishning eng yaxshi sabablaridan biridan deb baholanishga loyiqdir.

So'nggi yillarda Salomat Muhammad Vafo va Zulfiya Qurolboy qizi o'zbek adiblaridan birinchi bo'lib adabiyotimizni boyituvchi bir nechta roman yaratdilar. Ularning romanlari hozirgi davrning muhim va murakkab muammolarini dadil ko'tarib chiqqanligi bilan adabiyotimizda sezilarli hodisa bo'ldi. Lekin faqat murakkab muammolarni jasorat bilan ko'tarib chiqishning o'zi yozuvchining yoki adabiyotning katta yangiligi hisoblanmaydi. Agar shunday bo'lganida publitsistik badiiy adabiyotimizning yetakchi janriga aylanib ketishi hech gap emas edi. Z.Qurolboy qizi asarining asosiy fazilatlaridan biri shundaki, u hozirgi zamon hayotining murakkab muammolarini, og'riqli masalalarini dadillik bilan ko'tarib chiqishi o'zi bilan cheklanib qolmasdan ularni imkon boricha keng ko'lamda ta'sirchan shakilda, qiziqarli tarzda va ibratli xulosalar chiqarishiga imkon beradigan yo'sinda badiiy talqin etishga intilmoqda. Adabiyotning publitsistikadan farqli tomoni shundaki, u qalamga olingan har qanday hayotiy muammoni zavol bilmas yangilik, ya'ni badiiy tarzda aks ettiradi. Shunday aks ettirishga intilish natijasida so'ngi yillarda Z.Qurolboy qizining "Armon asirasi" va "Mashaqqatlar girdobi" romanlari yuzaga keldi.

Adibaning "Armon asirasi" romanida oddiy odamlarning oddiydan ham jo'n tashvishlari aks etgan. Romanda millat tarixi taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichidagi ulkan ijtimoiy voqealar, siyosiy evrilishlar emas, balki o'z mavjudligini ta'minlaganda nochor, kunini ko'rishga zo'r berib urinayotgan, ammo shuni ham uddalay olmayotgan kishilarning ayanchli taqdiri tasvirlangan.

"Armon asirasi" da o'zligini saqlash, o'z qiyofasiga ega bo'lishi imkoniga ega bo'lgan odam, uni hamisha turlanib – tuslanib, eshishga majbur etadigan vaziyat va shu holatda tirikchilik o'tkazishga mahkum shaxslarning mavjudligidagi fojiaiylik hamda ularning sezimlaridagi kishini larzaga soluvchi jihatlar ulkan xayrixohlik bilan tasvirlangan. Ayni vaqtda asarda har qanday yomon sharoit ham chinakam odamlarning shaxsiyatidagi o'zak sifatlarini o'zgartira olmasligi aks etgan. Romanning mazkur xususiyatlari haqida adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev quyidagicha mulohaza yuritadi: "Odatda romandan hayotdagi voqealarning ijtimoiy salmoqqa ega, qahramon tabiatini ochishga xizmat qiladiganlarini saralab tasvirlash talab qilinadi. Zulfiya esa voqealarni muhim – nomuhimiga ajratmaydi, qahramonlari xarakterini o'ta jo'n, mayda va hatto, tuban maishiy voqeylik fonida ko'rsatishdan ham taft tortmaydi. Bu xil yondashuvi ko'p o'rinlarda, obrazlarning mohiyatini ochishda adibga qo'l kelgan." [2].

"Armon asirasi" asarida ega ko'p o'rin egallagan na Nasiba, na umri fojealar girdobida o'tgan Donish, na prototipi muallifning o'zi deyish mumkin bo'lgan Xulkar Armon, na qismatga achchiqma-achchiq yashayotgan Behzod va na yovuzlik bilan hammaning ko'ngliga daxshat solib turuvchi Talgat nafaqat ishtimoiy hayotni o'zgartira oladi, balki o'z tirikchiliklarini tuzik yo'lga

qo'ya olmaydi. Ularning birortasi ham qahramon darajasiga chiqa olmagan kishilar. Shunchaki kun kechirish bo'lmaganiday, tirikchilik o'tganiga yutilgan odam ham qahramon bo'la olmaydi.

Asarda favqulodda holatga tushgan odamlarning tarang ruhiy holatlari ro'y bergan hissiy – ma'naviy evrilishlari mahorat bilan ko'rsatilgan. Jumladan, asarda yo'qchilik tufayli o'zbek ayolining o'zidagi ezgu sifatlardan ayrilib borish jarayoni ta'sirli aks ettirilgan: "Nasiba ham javray – javray oxiri tindi. Yotoqxonaga kirib eshigini ichkaridan qulifladi. Keyin burchakda turgan sandiqqa o'xshash qutini olib, uning ichidan chog'roqqini boshqa bir qutini – aftidan, bu egzak buyumlar qandaydir yig'ma mebel'ning bo'laklari edi – olib uni tizzasiga qo'ydi, qopqog'ini ochdi, ichidan bir dasta eski – yangi pullarni olib shosha-pisha sanay boshladi. Sanoq oxirlagan sayin uning rangi o'chib, borardi, "Voy o'lsin, boloyam qolmabdi-ku", deya pichirladi o'ziga – o'zi." [1].

Ma'naviyat juda yuksak tushuncha, lekin u o'zgarmas va turg'un hodisa emas. Odamdagi ma'naviy sifat hayotining o'zida, uning ta'sirida shakillanadi, o'zgaradi va yuksaladi. Romanda to'g'ri yo'lga qo'yilgan hayot odamning moddiy holatigagina emas, balki ma'naviy – axloqiy sifatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi yorqin aks ettirilgan.

Z.Qurolboy qizi timsollar mohiyatini yorqin ochuvchi qirralarni yaxshi biladi. Shuning uchun ham u Nasibaning ruhiyatidagi evrilishni birgina ovoz detali orqali to'liq ko'rsata olgan. Romanda soddagina Nasiba tekshiradigan, xatti – harakatlarni taftish qiladigan uy kishisi – sifatida tasvirlanadi. Nasiba timsolida adoqsiz mashaqqat, so'ngsiz azoblar ham ezgulikka umid va odamlarga ishonch tuyg'usini ayirolmagan o'zbek ayoli tasvirlanadi. Oilasi tinchligi, bolalari sog'lig'i, erining xotirjamliginigina o'ylaydigan bu ayol dunyo muammolarini hal etishni da'vo qilmaydi, shohona hayotni orzulamaydi, odam qatori yashashnigina istaydi xolos.

Nasiba qahramon ham emas, donishmand ham emas. Lekin u odamning tirikligi faqat azoblardan iborat bo'lmishi mumkin emasligini biladi, odamlarga ishonadi, ezgu kunlar kelishiga chin dildan umid qiladi: "Oxiri, kun kelib uning ham omadi yurishib qoladi. Axir dunyo o'zgarishga yuz tutmoqda!" (37-bet). [4]

Ana shu umid uni ulug'laydi. Zero, shayton va uning yo'lidan ketayotganlarga umiddan mahrumdirlar.

Tanqidchi Q.Yo'ldashev "Oldinlari asarlardagi adabiy timsollar o'z nomiga muvofiq tarzda timsol bo'lardi. Yani badiiy asarda tasvirlangan personaj kimlarningdir umumlashtirilgan obrazi, qandaydir ishtimoiy qatlamning vakili sanalardi. Endilikda adabiy obraz faqat o'zining timsoli, faqat o'zining vakili xolos! Badiiy asarda odamni to'daning vakili emas, bitta va betakror shaxs sifatida aks ettirish, unda biror ijtimoiy qatlamga xos xususiyatni emas, balki yolg'iz unchagina tegishli yaxshi – yomon sifatlarni tasvirlash shu xil estetik natijaga olib keladi" [3] - deb xulosa chiqargan edi.

Asardagi Donish timsoli tanqidchining bu fikrlarini ko'p - ko'p jihatdan tasdiqlaydi. Uni tushunish va yoqlash qanchalik qiyin bo'lsa, qoralash va rad etish ham shunchalar mushkul. Bu persanaj tabiatini belgilashda yozuvchi pozitsiyasining noaniqligidan emas, balki asarda odam tabiatidan o'zgaruvchanlik betakrorlikning to'g'ri ko'zda tutilganligidir. Garchi romanda donishning bir qadar yorqin ranglarda eslansa-da, aslida tabiatidagi betainlik, o'jizlik, qiyinchiliklarga betoqatlik uning har bir xatti – harakatida ko'rinib turadi.

Z.Qurolboy qizi donish obrazi misolida o'zgani tuymoq va tushinmoq bilan uning uchun birgina amaliy qadam qo'ymoq o'rtasida cheksiz masofa borligini ko'rsatadi. Yozuvchi asarda ijodkor o'z davridan tashqarida, uning ta'siriga berilmay turolmasligini Xulkar timsolida nozik ifoda etadi. Bu u Xulkar Armon tabiatdagi o'ziga xosliklarni ko'rsatishi yo'lidan boradi [4].

Shu tariqa qismat va inson munosabatlari haqidagi davom etadi. Asardagi har bir qahramonning taqdiri o'sha munosabatlarning biror yo'sinda namoyon bo'lishida talqin etilgan. Roman qismatni

kutib yotishni emas, balki uni munosibroq qilish uchun timsol intilish qiyinchiliklar og‘ushida tazarish kerakligiga o‘quvchini ishontira oladi.[2]

“Armon asirasi” romanida milliy romanchilikka yangilik bo‘lib qo‘shiladigan jihatlar anchagina. Zuhra, Tolgat, Nasiba, Xulkar va ayniqsa Donish kabi obrazlarni o‘zbek arabiyotidagi yangilik deyish mumkin.

Muxtasar qilib aytganda, XX asrning yetuk yozuvchisi – Zulfiya Qurolboy qizi asarlarining tili ravon, xalqchil, sodda va samimiy bo‘lib o‘zbek ayolining mashaqqatlar girdobidanda omon chiqib, hayotga umid nazari bilan boqishini yorqin ifoda etgan. Hikoya va romanlarini faqatgina fan mutaxassislorigina emas, balki barcha soha vakillari hech bir qiyinchiliksiz o‘qiy olishi, muhokama qilishi, atrof-muhit va o‘z hayoti bilan taaqqoslay olishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Йўлдошев Қ. Азобда тобланган одамлар тасвири.- Т.: Янги аср авлоди, 2009. -144 б.
2. Йўлдошев Қ. Роман ва бугунги ўзбек романчилиги. // Шарқ юлдузи, 2011. №4.- Б.46.
3. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Т: Янги аср авлоди, 2006. – 280 б.
4. Зулфия Қуролбой қизи. Армон асираси. – Т.: Янги аср авлоди. 2009. - 120 б.

References

1. Yo‘ldoshev Q. Azobda toblangan odamlar tasviri.- T.:Yangi asr avlodi, 2009. -144 b.
2. Yo‘ldoshev Q. Roman va bugungi o‘zbek romanchiligi. // Sharq yulduzi, 2011. №4.- B.46.
3. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – T: “Yangi asr avlodi”, 2006. – 280 b.
4. Zulfiya Qurolboy qizi. Armon asirasi. – T. Yangi asr avlodi. 2009. 120 b.

Muallif:

Egamberdiyeva K. - Respublika ta’lim markazining Adabiyot fani metodisti.